

STOMATOLOGIYADA MAHALLIY ANESTIZIYA UCHUN QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARI

Tursunova Yulduz

Sobirova Ozoda

Stomatologiya fakulteti 306-B TDSI

ilmiy rahbarlar:

Sanoev Z.

Yusupova Z.

Annotatsiya

Maqola stomatologiyada mahalliy anestiziya uchun eng ko'p qo'llaniladigan dori vositalari, ularning tarkibi, xususiyatlari, ta'sir qilish muddati va ularni kuchaytiruvchi, davomiyligini oshiruvchi moddalar va ularning qo'llanilishi, umumiy va mahalliy asoratlari.

Kalit so'zlar: mahalliy anesteziya, anestetik turlari, lidokain, trimikain, artikain, novakain, asoratlar.

Bugungi kunda stomatologik muolajalarni og'riqsizlantirishsiz bajarilishini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Og'riqsizlantirish stomatologiyaning har bir sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu tish davolash bo'ladimi, protezlash maqsadida charxlash bo'ladimi, tish olish bo'ladimi yoki og'iz bo'shlig'ida jarrohlik amaliyotida bo'ladimi hech birini og'riqsizlantirishsiz bajarib bo'lmaydi. Hozirda stomatologiyada og'riqsizlantirish uchun juda ko'p preparatlar ishlatilmoqda. Ularning asosiy sifatleri farmakologik strukturalarni oqsillar bilan birikishi, yog'lar eruvchanligi, to'qima orasida tarqaluvchanligi bilan baholanadi. Og'riqsizlantiruvchi moddaning oqsil bilan bog'lanishi qancha yuqori va yog'larda eruvchanligi past bo'lsa u shuncha yaxshi og'riqsizlantiriladi va albatta zarari kam bo'ladi. Shularni e'tiborga olgan holda bugungi eng samarali og'riqsizlantiruvchi vositalar qatorida novakain, trimekain, lidokain, artikainlarni misol qilib keltirish mumkin.

Anestetiklarning ta'sir etish mexanizmi afferent nerv tolalari oxirlariga va nerv tolalariga ta'sir etadi va qo'zg'alish impulsini hosil bo'lishiga, o'tkazilishiga va tarqalishiga qarshilik qiladi. Membrana fosfolipidlarining sirt tarangligini buzib natriy va kaliy ionlarini o'tishiga to'sqinlik qiladilar.

Mahalliy anestetiklarga bo'lgan talablar:

- Tanlab ta'sir ko'rsatish xususiyati yuqori bo'lishi
- Ta'sir davomiyligi yetarli bo'lishi
- Nojo'ya ta'sirlarning bo'lmasligi
- Toksikligi past bo'lishi zarur
- Gidrofil bo'lishi
- Sanoatda oson olinishi
- Narxi qimmat bo'lmasligi kerak
- Steril holatda saqlangan bo'lishi shart

Novakain- tibbiyotda gidrokslorid shaklida qo'llaniladi, yetarlicha anestiziyalovchi, zaharliligi juda past, ta'sir etish davomiyligi 30-60 daqiqa. U shilliq pardalar orqali yomon o'tadi, shu sababli yuza anesteziyada qo'llaniladi. Novakain qon tomirlarni toraytirmaydi, shuning uchun yuborilgan joyida so'rilishni kamaytirish uchun, mahalliy anesteziya muddatini oshirish, ta'sirini uzaytirish va zaharliligini kamaytirish uchun tarkibiga adrenomimetiklar- adrenalin, mezatoin qo'shib yuboriladi. Agar dozasi oshib ketsa, novakaindan zaharlanish kuzatiladi. Bunday holatlarda bemorda quyidagi o'zgarishlar kuzatilishi mumkin: Bosh aylanish, xolsizlik, ko'ngil aynib qusish, talvasa, uyquchanlik, teri rangi oqarishi(teri rangi o'chishi), qon bosim tushib, puls tezlashishi, ba'zi hollarda tutqanoq.

Trimekain- anestetik ta'siri novakaindan 2-3 marta ustun bo'lib, ta'sir etish muddati 2-4 soat. To'qimaga tez so'riladi, ammo toksikligi novakaindan 1,5 marta ko'proq. Odatda bu anestetiklar muolajalarda kam jo'natiladi, shuning uchun nojo'ya ta'siri deyarli bo'lmaydi. Ba'zi holatlarda nojo'ya ta'sir sifatida anestetik yuborilgan joyda achishish va ko'ngil aynishi, qusish holatlari kuzatilishi mumkin.

Lidokain- universal anestetik bo'lib, mahalliy anestiziyaning barcha turlarida eng ko'p qo'llaniladi. Uning faolligi novakainga nisbatan 2,5 barobar kuchliroq, toksiligi novakaindan biroz ko'proq. Ta'sir davomiyligi novakaindan 2 marta uzoq. Agarda novakainni adrenomimetiklar bilan birga qo'llansa ta'sir davomiyligi 1,5-2 soatgacha davom etsa, lidokain adrenomimetiklar bilan qo'llanganda ta'sir davomiyligi 2-4 soatgacha ortadi. To'qimalarni deyarli ta'sirlamaydi. Lidokain qonga yaxshi so'riladi ya'ni kuchli aritmiyaga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Agarda lidokain miqdori oshirilsa, zaharlanish kuzatiladi. Bunda bemorda quyidagi asoratlari kuzatiladi: ko'ngil aynib , nafas olish qiyinlashadi, talvasa, ko'rish



xususiyati kamayadi, uyquchanlik paydo bo'lib, oyoq-qo'l titraydi. Og'ir holatlarda yurak- qon tomir tizimida buzilishlar kuzatiladi.

Artikain- hozirgi zamonaviy mahalliy anestetik hisoblanadi. Bir vaqtda qon tomirlarni kengaytirish va mushaklarga spazmolitik ta'sir etadi. Oqsillar bilan yuqori darajada bog'lanishi, yog'da kam eruvchanligi bilan alohida sifatlanadi. Ayniqsa qari va homilador ayollarda qo'llash tavsila etiladi. Ta'siri 3-4 daqiqadan so'ng boshlanib, ta'sir davomiyligi 25-30 daqiqa. Ta'sir davomiyligi qisqa bo'lgani uchun bu anestetikni qisqa davom etuvchi muolajalarda qo'llash tavsiya etiladi. Miqdori oshib ketsa, anestetikni muolajada noto'g'ri qo'llansa yoki bemorning anestetikka allaergiyasi bo'lsa, mahalliy anestetiklardan quyidagi asoratlar kelib chiqishi mumkin:

- Anestetiklardan zaharlanish
- Novakaindan zaharlanish
- Adrenalindan zaharlanish
- Xushdan ketish
- O'tkir tomir yetishmovchiligi
- Anafilaktok shok
- Tutqanoq
- Og'ir holatlarda o'lim

Xulosa: Ushbu maqolani yozish davomida shuni xulosa qilib aytamanki, har bir inson o'z sog'ligiga ta'sir etuvchi dori vositalarining asoratlarini yaxshi bilishi va shu asoratlardan saqlanishi zarur. Shu bilan birga har bir stomatolog o'z ishiga ma'suliyat bilan yondashishi kerak. Ishonch bilan shuni aytoLAMANKI bu maqola har bir mutolaa qiluvchi insonga foydali bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xarkevich D.A. Farmakologiya. – M.:Meditsina, 2009.
2. Azizova S.S. Farmakologiya(tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik). Toshkent: “ Yangi asr avlodi”, 2006
3. M.I. Azimov. Jarrohlik stomatologiya propedevtikasi(tibbiyot oliy o'quv yurtlari uchun darslik). Davlat milliy nashryoti: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Toshkent-2009.
4. https://www.researchgate.net/publication/350559191_Maallij_anestetiklar (PDF) Mahalliy anestetiklar. Sanoev.Z. Apr 1, 2021.

